

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Pedagogika fakulteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasining yig'ilish Bayonnomadan

Ko'chirma

№ 5

1.12 2025-yil

Sariosiyo t.

Qatnashdilar:Kafedra professor-o'qituvchilar: 16 nafar. A.Ahmedov, A.Azamqulov, A.Yusupov, M.Raxmonova, O'.Rajabov, Sh.Umaraliyeva, N.Ibragimova, S.Do'stov, D.Melieva, F.Safarov, Z.Jumayeva, A.Normurodova, E.Tangriqulov, Sh.Umaraliyeva

KUN TARTIBI:

1.Bayroq qabul qilinganligining 34-yilligiga bag 'ishlangan "Парчами мо ғурури миллии мо"rasmlar tanlovi.


Mas'ul o'qituvchilar: Amirqulov A, Azamqulov A

E SHITILDI:

Kafedra yig'ilishida kafedra mudiri (PhD) dots A.K.Xamidov so'zga chiqib, O'zbekiston Respublikasida Bayroq qabul qilinganligining 34-yilligi munosabati bilan talabalar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish maqsadida "Парчами мо – ғурури миллии мо" mavzusida rasmlar tanlovi o'tkazish zarurligini ta'kidladi. Shuningdek, tanlovni o'tkazishning asosiy maqsadi yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlash, davlat ramzlariga bo'lgan hurmat-ehtiromni yanada oshirish ekanligi qayd etildi.



Ushbu masala yuzasidan kafedra o'qituvchisi A.Ahmedov so'zga chiqib, So'zga chiqqan o'qituvchi "Парчами мо – ғурури миллии мо" rasmlar tanlovini o'tkazishning tarbiyaviy ahamiyatini alohida ta'kidladi. Tanlov yoshlar ongida davlat ramzlariga hurmatni yanada oshirish, Vatanga sadoqat tuyg'usini mustahkamlashda muhim omil ekanligini qayd etdi. Shuningdek, tanlov jarayonida ishtirokchilar uchun aniq mezonlar belgilash, ijodiy ishlarning badiiy yechimiga, mazmuniga va texnik ijrosiga alohida e'tibor berish zarurligini bildirdi.



Mas'ul kotib tanlovni keng targ'ib qilish bo'yicha o'z fikrlarini bildirib, ijtimoiy tarmoqlar, kafedra axborot stendlari va guruhlar rahbarlari orqali talabalarni faol jalb qilish taklifini berdi. Shuningdek, tanlov jarayonida shaffoflikni ta'minlash, baholash komissiyasining ishini ochiq e'lon qilish va g'oliblarni adolatli tanlash masalalarini ko'tardi. Ushbu ishtirokchi talabalar o'rtasida vatanparvarlik ruhini yuksaltirishda san'atning o'rni beqiyos ekanligini aytib o'tdi. Tanlovga tayyorgarlik jarayonida talabalarga maslahat va metodik ko'mak berish, ijodiy ishlarning sifati va mazmunini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berdi. Shuningdek, eng yaxshi ishlarni kafedra nomidan keyingi bosqichlarga yuborish taklifini ilgari surdi.





Yig'ilish so'ngida so'z navbati A.Amirqulovga berildi. A.Amirqulov tanlovda ishtirok etgan professor-o'qituvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirdi va muhokama jarayonida professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni keyingi pedagogik faoliyatida e'tiborga olishini ta'kidladi.



Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish qaror qiladi:

1. Professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bayroq qabul qilinganining 34-yilligiga bag'ishlangan "Парчамн мо – ғурури миллнн мо" rasmlar tanlovi namunali deb baholansin va talabalar orasida shundayma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlari doimiy olib borilsin.

Kafedra mudiri :

Kotibi:

[Handwritten signature]
[Handwritten signature]

A.K.Xamidov

N.Ibragimova

DTPI rasmiy kanali



Hilpira_bayrog'im

🎨 Pedagogika fakultetida 1991-yil 18-noyabrda O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'i qabul qilinganligining 34 yilligi munosabati bilan tadbirlar davom etmoqda. Xususan, "Besh muhim tashabbus" doirasida iste'dodli yoshlarni kashf etish maqsadida Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchilari A.A'zamqulov, A.Amirqulovlar tashabbusi bilan 2-3-kurs tojik tili guruhlarida talabalari o'rtasida "Rasmlar tanlovi" bo'lib o'tdi.

🎨 Rang-tasvir orqali san'at namunalarini yaratgan talabalar davlat bayrog'i, humo qushi tasviri orqali ezgu maqsadlari, orzu va intilishlarini aks ettirdilar.

👏 Jarayonni fakultet dekani, O'quv ishlari bo'yicha dekan o'rinbosari, tasviriy san'at bo'yicha mutaxassislar kuzatib bordilar va yakuniy natijalarni e'lon qildilar.

👉 DTPI Matbuot xizmati

👍 7 ❤️ 2 🔥 1 ❤️ 1 🗳️ 2

👁️ 1332 11.01.2025